

MAKTAB DARSLIKLARIDA ARXEOLOGIK SO‘ZLARNI O‘QITISH

Abduqahhorova Husnora

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 311-guruh talabasi*

Tel: +998930047944

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxeologik so‘zlarning o‘zbek tilidagi leksik-semantik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, boshqa tillardan o‘zlashuvi hamda ilmiy atama sifatida qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, arxeologik terminlarning tarix, madaniyat va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligi yoritiladi. Maqola davomida so‘zlarning fonetik va morfologik tahlillari berilib, arxeologik leksikaning o‘zbek tilidagi shakllanish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ularning tarjimada ishlatilishi, ilmiy-uslubiy talqini va tilshunoslikda tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: arxeologik termin, leksik tahlil, ilmiy uslub, o‘zlashma so‘z, tarixiy davr, artefakt, o‘zbek tili, terminologiya, qadimiy yodgorliklar, tilshunoslik.

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic features of archaeological words in the Uzbek language, their origin, borrowing from other languages, and their use as scientific terms. It also highlights the connection of archaeological terms with history, culture, and folklore. The article provides phonetic and morphological analyses of words and examines the process of formation of archaeological vocabulary in the Uzbek language. It also discusses their use in translation, scientific and methodological interpretation, and their role in linguistics.

Key words: archaeological term, lexical analysis, scientific method, loanword, historical period, artifact, Uzbek language, terminology, ancient monuments, linguistics.

Til insoniyat tafakkurining mahsuli, jamiyatning madaniy taraqqiyoti va tarixiy tajribasining aksidir. Har bir davr tilda o‘z izini qoldiradi. Buning natijasida ayrim so‘zlar zamonaviy tildan chiqib ketadi, lekin yozma yodgorliklarda, doston va tarixiy asarlarda saqlanadi. Bu kabi so‘zlar arxeologik so‘zlar deb ataladi. Arxeologik so‘zlar – zamonaviy adabiy tilda faol ishlatilmaydigan, ammo tarixiy manbalar va adabiy yodgorliklarda

uchraydigan leksik birliklardir. Bu so‘zlar orqali o‘tmishdagi madaniyat, turmush tarzi, ijtimoiy tuzum, e’tiqod, urf-odatlar haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. O‘zbek tilshunosligida arxeologik so‘zlarning o‘rganilishi alohida yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu so‘zlar til tarixini o‘rganishda, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va leksik tafovutlarni anglash malakasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek tilida mavjud arxeologik atamalarning ko‘pchiligi boshqa tillardan, xususan, qadimgi yunon, lotin, fors va arab tillaridan o‘zlashtirilgan. Bu holat ularning tarixiy shakllanishini aks ettiradi. Masalan, “paleolit” so‘zi qadimgi yunon tilidagi “palaios” – qadimiya “lithos” – tosh so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu davr toshdan yasalgan qurollar bilan tavsiflanadi. “Neolit”, “eneolit” kabi atamalar ham shunday tarkibga ega. Ularning fonetik shakli xalq tilida moslashgan bo‘lsa-da, ilmiy mazmuni saqlanib qolgan.

Shu bilan birga, o‘zbek tilida tarixan mavjud bo‘lgan va arxeologik ma’noni ifodalovchi so‘zlar ham bor. “Qo‘rg‘on”, “qal’a”, “ibodatxona”, “zardushtiy”, “nekropol” kabi so‘zlar nafaqat arxeologiyada, balki tarixiy adabiyotlarda ham uchraydi. Bu so‘zlarning bir qismi hozirgi kundalik nutqda unutilgan bo‘lsa-da, ilmiy kontekstda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Tarixiy va arxeologik terminlarning tilga kirib kelish jarayoni ko‘p hollarda tarjima asosida amalga oshgan. O‘zbek tilshunosligida bu borada bir necha yondashuvlar mavjud: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, fonetik moslashtirish, semantik ekvivalent topish. Masalan, “burial mound” inglizcha atamasi o‘zbek tiliga “kurqan” deb tarjima qilinadi. Bu so‘z turkiy ildizga ega bo‘lib, “ko‘tarilgan yer”, “qabr usti” degan ma’nolarni bildiradi. Shunga o‘xhash holda “epigrafika” – yozuv yodgorliklarini o‘rganish fani sifatida ishlatiladigan termin bo‘lib, o‘zbek tilida ham ayni shaklda qabul qilingan.

Bunday terminlar ilmiy tilda juda aniqlik bilan ishlatiladi. Ulardagi kichik semantik farqlar ham mazmunni buzib yuborishi mumkin. Masalan, “artefakt” va “buyum” so‘zları o‘xhash bo‘lsa-da, birinchisi aynan inson tomonidan yaratilgan va tarixiy kontekstdagi topilmani bildiradi. Ikkinchisi esa umumiyl, kundalik tilda har qanday narsa bo‘lishi mumkin. Shu sababli ilmiy nutqda arxeologik atamalarning to‘g‘ri qo‘llanishi muhimdir.

Arxeologik terminlarning o‘zbek tilida qo‘llanishi tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tahlil etilishi kerak. Bunday tahlillar natijasida o‘zbek tilining ilmiy uslubda qanday boyib borayotgani ko‘rinadi. Masalan, “stratigrafik qatlam”, “kultura qatlamlari”, “neolit inshootlari” kabi iboralar zamonaviy ilmiy matnlarda keng uchraydi. Bu iboralarning sintaktik tuzilishi, morfologik shakllari va semantik tarkibi tahlil qilinib, o‘zbek ilmiy uslubining rivojlanish darajasi aniqlanadi.

Arxeologik so‘zlar faqat tor ilmiy doirada emas, balki madaniyat va san’at bilan bog‘liq matnlarda ham qo‘llaniladi. Muzey eksponatlari tavsifi, tarixiy romanlar, kinofilmlar va ilmiy-ommabop maqolalarda bu atamalarning adabiy, badiiy talqini ham shakllanmoqda. Masalan, “Samarqanddagi qadimiy minoralar”, “Ko‘hna Xorazm qazilmalarida topilgan sopol buyumlar” kabi ifodalar orqali tarixiy haqiqat badiiy tarzda yetkaziladi. Bu esa arxeologik terminlarning ommaviy ongda mustahkamlanishiga olib keladi.¹

O‘zbek tilida terminologik tizim yaratishda rus tilining ta’siri ham katta bo‘lgan. Arxeologiya fani Sovet davrida jadal rivojlangan va ko‘plab atamalar rus tilidan o‘zlashtirilgan. Masalan, “poseleniye”, “kurgan”, “kul’tura sloy” kabi so‘zlar o‘zbek ilmiy matnlarida ruscha shaklda saqlanib qolgan. Bugungi kunda esa bu terminlarni o‘zbekcha muqobillari bilan almashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa milliy terminologiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – arxeologik atamalarni zamonaviy axborot texnologiyalarida qo‘llash masalasidir. Elektron lug‘atlar, ilmiy bazalar, raqamli muzey platformalarida bu so‘zlarning aniq va standartlashtirilgan shakllarda bo‘lishi muhim. Aks holda, noto‘g‘ri tarjimalar yoki chalkashliklar ilmiy axborot almashinuvida xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, har bir yangi termin o‘zbek tilida rasmiy tasdiqlangan izohli lug‘atlar orqali muomalaga kiritilishi kerak.

Maktab ta’limi tizimida til va adabiyot fanlarini o‘qitishda arxeologik so‘zlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda o‘z milliy o‘tmishiga, madaniyatiga bo‘lgan qiziqish uyg‘otiladi. Darsliklarda arxeologik so‘zlar ko‘pincha tarixiy asarlardan parchalar, xalq og‘zaki ijodi, doston va afsonalarda uchraydi. Masalan, 6-sinf adabiyot darsligida

¹ Islomov A. O‘zbek tilida ilmiy uslub va terminlar. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2015. – 75-b.

“Alpomish” dostonidan parchalar berilgan. Unda “xon”, “bek”, “sipohiy”, “qal’ा”, “nayza”, “darvoza”, “ko‘hna” kabi arxeologik so‘zlar mavjud. Ushbu so‘zlarni o‘quvchilarga tushuntirish orqali ularda tarixiy matnlarni tushunish, o‘tmish tafakkurini anglash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘qituvchi har bir arxeologik so‘zni izohlab, uning zamonaviy til bilan farqini ko‘rsatishi lozim.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibida arxeologik so‘zlar qadimiy davlat tuzumi, urf-odatlar, diniy qarashlar, harbiy tizim, me’moriy yodgorliklar bilan bog‘liq. Jumladan, “xoqon”, “mirzoboshi”, “sadr”, “sulton”, “zardushtiy”, “otashkada”, “karvonsaroy”, “madrasayi” kabi so‘zlar misol bo‘la oladi. Bu so‘zlarning ma’nosi zamonaviy o‘quvchilar uchun begona bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ularni o‘rgatishda maxsus metodik yondashuv zarur. Bunda kontekstual tahlil asosida arxeologik so‘zlar tushuntiriladi. Misol uchun, 7-sinf darsligida “Afrosiyob” arxeologik yodgorligi haqida matn keltiriladi. Undagi “ko‘hna”, “xazinaxon”, “shahriston”, “ark”, “g‘ishtin devor” kabi so‘zlar har biri alohida tushuntirilishi kerak.

O‘qituvchilar arxeologik so‘zlarni dars jarayonida quyidagi metodik yondashuvlar asosida o‘rgatishlari mumkin: birinchidan, kontekstual metod – so‘zning matndagi o‘rnini tushuntirish, ikkinchidan, tarixiy izoh – so‘zning paydo bo‘lish davri va davrga xosligi haqida ma’lumot berish, uchinchidan, vizual metod – suratlar, tarixiy joylar tasviri, interaktiv videolavhalar orqali ko‘rsatish. Shuningdek, maktablarda o‘tkaziladigan ochiq darslar, tarixiy ekskursiyalar davomida arxeologik so‘zlarni real muhitda o‘rganish mumkin. Misol uchun, 9-sinf darsligida “Samarqand – qadimiy shahar” mavzusida keltirilgan matnda ko‘plab arxeologik atamalar mavjud. “Mehrab”, “darvoza”, “suvxon”, “ko‘hna shahar devori”, “gumbaz”, “minora” kabi so‘zlar o‘quvchilarga Samarqand tarixining madaniy boyligini aks ettirib beradi.

Arxeologik so‘zlarni o‘rgatishda interfaol mashqlar ham samarali hisoblanadi. Masalan, guruhli ishda matndan arxeologik so‘zlarni ajratish, ularni lug‘at daftariga yozib, zamonaviy til bilan taqqoslash. “So‘zlar xazinasi” nomli o‘yin orqali o‘quvchilar tarixiy matndan noma’lum so‘zlarni izlab topadilar va ularning ma’nosini izohlashga harakat qiladilar. Bu esa ularning izlanish, mustaqil fikrlash, lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Test sinovlari orqali esa o‘quvchilarning bu boradagi bilim darajasi aniqlanadi.

Masalan: “Quyidagi so‘zlardan qaysi biri arxeologik hisoblanadi?” – degan savolga javob variantlari beriladi: A) telefon, B) otashkada, C) kompyuter, D) internet. To‘g‘ri javob: B – otashkada.

Bundan tashqari, arxeologik so‘zlar asosida ijodiy ishlar, esse yozish, hikoya tuzish, tarixiy shaxs nomidan maktub yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda badiiy-estetik fikrlashni rivojlantiradi. Jumladan, “Men – qadimiylar karvonsaroymen” mavzusida yozilgan esse o‘quvchini tarixiy davrga olib kiradi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini, balki u yashagan davrning ruhini his qilishadi.

O‘quvchilar bilan ishslashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ham arxeologik so‘zlarni o‘rgatishda muhimdir. Masalan, 3D vizualizatsiyalar, animatsion filmlar, tarixiy hujjatlar asosida yaratilgan interaktiv platformalar orqali o‘quvchilarga qadimiylar madaniyatni ko‘rsatish mumkin. Maktablarda mavjud elektron resurslar yordamida “Afrosiyob yodgorliklari”, “Sopolli tepa”, “Toprakkala” kabi joylar haqida tayyorlangan materiallar orqali arxeologik terminlarga oid bilimlar mustahkamlanadi.

Shuningdek, arxeologik so‘zlar darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlarda ham keng uchraydi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, Oybekning “Navoiy” romanida juda ko‘p tarixiy so‘zlar mavjud. Ushbu asarlarni tahlil qilish orqali ham o‘quvchilarda tarixiy tilga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi. O‘qituvchi har bir badiiy obraz orqali arxeologik so‘zning funksiyasini ko‘rsatib bera oladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, arxeologik so‘zlar o‘zbek tilining ilmiy, madaniy va tarixiy qatlamlarini boyituvchi kuchli omillardandir. Ularni chuqur o‘rganish, tasniflash, kelib chiqishini aniqlash orqali nafaqat tilshunoslikka, balki umumiylar madaniyatshunoslikka ham katta hissa qo‘shiladi.

Arxeologik so‘zlar orasida ayniqsa diqqatga sazovor bo‘lganlari – davr nomlari bilan bog‘liq terminlardir. Ular insoniyat tarixidagi taraqqiyot bosqichlarini belgilaydi. “Paleolit”, “mezolit”, “neolit”, “eneolit” va “bronza davri” kabi atamalar har bir arxeologik davrning o‘ziga xos texnologik va madaniy xususiyatlarini bildiradi. Masalan, paleolit davrida tosh qurollar ishlatilgan bo‘lsa, neolit davrida dehqonchilik va kulolchilik paydo bo‘ladi. Bu davr

nomlari nafaqat arxeologik atama sifatida, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham muhim belgilar hisoblanadi.

Bu terminlarning o‘zbek tilidagi ishlatilishida ba’zi lingvistik tafovutlar ham kuzatiladi. Masalan, rus tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilgan “eneolit” atamasi ko‘plab matnlarda izohsiz qo‘llaniladi. Holbuki, bu atama “mis-tosh davri” degan ma’noni anglatadi va uni tushunarli tarzda “o‘tish davri” sifatida ifodalash mumkin. Shu kabi atamalarni tilimizda to‘g‘ri va aniq ifoda etish, ularning mazmunini ochib berish ilmiy tildagi aniqlikni oshiradi.

Shuningdek, arxeologik so‘zlarning fonetik shakllari ham tilshunoslik uchun qiziqarli jihatlardan biridir. Masalan, “kurqan” va “qoratepa” so‘zлari turli hududlarda turlicha talaffuz qilinadi. “Kurqan” so‘zi ba’zan “ko‘rgan”, “qurxon” kabi shakllarda uchraydi. Bu fonetik tafovutlar dialektologik jihatdan ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardandir. Chunki ular til tarixidagi o‘zgarishlarni, so‘zlarning xalq tilida qanday yashab qolganini ko‘rsatadi.

Arxeologik terminlarning boshqa fanlar bilan kesishgan nuqtalari ham mavjud. Masalan, tarix, etnografiya, antropologiya, san’atshunoslik kabi fanlarda bu so‘zlar faol qo‘llaniladi. “Petroglif”, “kult”, “ritual”, “nekropol” kabi terminlar diniy marosimlar, qadimiy insonlarning dunyoqarashi, dafn marosimlari bilan bog‘liq. Ularning izchil ishlatilishi ko‘p fanli tadqiqotlar uchun til birliklarining yagona tizimini yaratadi.²

Bugungi global ilmiy muhitda arxeologik terminlarning ingliz tilidagi shakllari tobora ko‘proq ishlatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarda ikki tilli terminlardan foydalanish ehtiyojini tug‘diradi. Masalan, “radiocarbon dating (radiokarbon datalash)”, “site excavation (qazilma obyekti)”, “contextual analysis (kontekstual tahlil)” kabi iboralar ko‘plab maqolalarda parallel tarzda ishlatilmoqda. Bunday ikki tillilik til o‘rganuvchilari va mutaxassislar uchun qulaylik tug‘diradi, biroq bu uslub rasmiy terminologik me’yorlar asosida boshqarilishi lozim.

² Xudoyberganov Q. O‘zbek tilida tarixiy terminlarning shakllanishi. // Til va adabiyot jurnali, 2021, №2. – B. 45–49.

Arxeologik terminologiyaning bugungi rivojlanishida o‘zbek tilining davlat tili sifatida mustahkamlanishi alohida o‘rin tutadi. Yurtimizda arxeologik yodgorliklar sonining ko‘pligi, ularning ilmiy jihatdan o‘rganilishi, muzeylar va ilmiy ekspeditsiyalarining ko‘payishi natijasida ushbu sohada yangi-yangi so‘zlar tilga kirib kelmoqda. “Sopol haykalcha”, “samarqand naqshi”, “topilgan katak uy”, “suyak ashyolar”, “tuproq qatlaming buzilmaganligi” kabi ifodalar rasmiy va ommaviy matnlarda o‘z o‘rnini topmoqda.

Xalq orasida arxeologiyaga oid ayrim so‘zlar turli afsona va rivoyatlar orqali saqlanib qolgan. Masalan, “xazinador tog”, “ko‘milgan oltin”, “ko‘hna g‘or” kabi iboralar folklor matnlarida tez-tez uchraydi. Bu iboralar arxeologik so‘zlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasada, ularning xalq ongida qanday yashayotganini ko‘rsatadi.

Demak, arxeologik leksika nafaqat ilmiy muhitda, balki ommaviy ongda ham mavjud bo‘lib, u milliy xotira va madaniy merosning til bilan bog‘liq qismidir.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, arxeologik so‘zlar o‘zbek tilining muhim qatlamlaridan biridir. Ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi, etimologik va semantik jihatdan izchil o‘rganilishi nafaqat fan rivojiga, balki milliy madaniyatga, til siyosatiga va ta’lim tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu sohalarda ishlayotgan tilshunoslar, tarixchilar, tarjimonlar, o‘qituvchilar va yozuvchilar uchun arxeologik terminlarning yagona izohli lug‘ati zarur. Bunday lug‘atlar tilni boyitadi, notiqlik madaniyatini oshiradi va ilmiy muloqotni yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, arxeologik so‘zlar nafaqat leksik jihatdan qadimiy til qatlaming namunasi, balki o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, madaniy xotira, mustaqil fikrlash, milliy o‘zlikni anglash hissini shakllantiruvchi vositadir. Maktab darsliklarida ushbu so‘zlarning mavjudligi o‘quv jarayonining madaniy-boyitilganligini anglatadi. Har bir o‘qituvchi bu so‘zlardan samarali foydalanib, zamonaviy darsni o‘tmish bilan bog‘lay oladi. Shu tariqa, o‘quvchilar o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini, boy leksik merosini chuqurroq o‘rganadilar.

Foydalilanigan Adabiyotlar:

1. Berdiyorov S. Til va arxeologiya: terminologik tahlil. // Filologiya masalalari, 2019, №3. – B. 112–118.

2. Gulyamov Ya. G. Qadimgi O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Fan, 1974. – 58-b.
3. Islomov A. O‘zbek tilida ilmiy uslub va terminlar. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2015. – 75-b.
4. Oxford English Dictionary. Entry: “Paleolithic”, “Neolithic”. Oxford University Press, 2023.
5. Sagdullayev A. O‘zbekiston arxeologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000. – 134–136-betlar.
6. Suleymanov R. Arxeologiya asoslari. Toshkent: Sharq, 2007. – 89–92-betlar.
7. Xudoyberganov Q. O‘zbek tilida tarixiy terminlarning shakllanishi. // Til va adabiyot jurnali, 2021, №2. – B. 45–49.